

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA
TA'LIM-TARBIYA BERISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING
AHAMIYATI**

Toshova Gulsanam Bekmurotovna
Navbahor tumani 15-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarga ta'lism-tarbiya berishda didaktik o'yinlarning ahamiyati beqiyosdir. Ta'limiyl faoliyatlarini tashkil etishda bolalarning qiziqishlari asosida didaktik o'yinlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Chunki bolalar uchun tayyorlagan didaktik o'yinlar eng muhim tushunchalarni shakllantirishda ko'maklashadi. Bolalarda tanqidiy tahlil qilish malakasini didaktik o'yinlar orqali rivojlantirish mumkun.

Kalit so'zlar: Didaktik o'yinlar, didaktik materiallar, tanqidiy tahlil qilish, ta'limiyl faoliyatlar, maktabgacha ta'lism tashkilotlari, mustaqil yondashuvlar, pedagog-tarbiyachilar, topshiriqlar.

Yurtimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida maktabgacha ta'lism tashkilotlarining ahamiyati beqiyosdir. Maktabgacha yoshdagil bolalar ta'lism va tarbiyasining eng muhim poydevorini barpo etayotgan maktabgacha ta'lism tashkilotlarida sifatli ta'lism berish eng ustuvor yo'nalishdir. Shuningdek, bolalarga ta'lism-tarbiya berish ham qonunchiligidizda o'z aksini topgan. "Maktabgacha ta'lism va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lism turidir. Maktabgacha ta'lism va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi"¹. Bundan shuni anglash kerakki, vatanimizning taraqqiyoti uchun yosh avlodning sifatli ta'lism olishi davlatimiz e'tiboridadir.

Butun jamiyatda bo'lgani kabi, xususan, bolalar jamoasida ham axloqiy va ma'naviy tarbiya masalalari juda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog-tarbiyachilarning asosiy vazifalaridan biri shundaki bolaga aqliy va axloqiy fazilatlarni, yaxshi niyatni, vatanga, tabiatga muhabbat va boshqalarni singdira olishdir. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarning asosiy faoliyati o'yin

¹ "Ta'lism to'g'risida"gi 637-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 23.09.2020

bo'lganligi sababli, vazifalarni eng yaxshi amalga oshirish o'yin vositalari orqali bo'ladi.

Didaktik o'yin - bu o'yin shaklida tashkil etilgan o'quv faoliyatining bir turi. Ta'limiy faoliyatlarda o'yin, faol o'rganish tamoyillarini amalga oshiradi, muayyan qoidalarga bo'ysunadi, qat'iy tuzilishga va nazorat va baholash vositalari tizimiga ega bo'ladi. 2-3 yoshli bolalar uchun didaktik o'yinlar sifatida chaqaloqni qanday rivojlantirish kerak. Ko'rib chiqilayotgan o'yinlar, shuningdek, mobil, musiqiy o'yinlar kattalar (o'qituvchi, ota-onalar) tomonidan yaratilgan va tayyor holda taklif etiladi. Birinchidan, bolalar o'yinni ishlab chiquvchilar yordamida o'zlashtiradilar, harakat qoidalarini, me'yorlarini o'rganadilar va vaqt o'tishi bilan kerakli tarkibni o'zlashtirgandan so'ng, ularni mustaqil ravishda o'ynashga harakat qiladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning turlari xilma-xildir. Ularning o'yin turlarini asosan quyidagi klassifikatsiyalash mumkun:

- Syujetli va rollarga bo'lib o'ynaladigan o'yinlar;
- Didaktik o'yinlar;
- Harakatli va qoidalgi o'yinlar;
- Aralashtirilgan o'yinlar;
- Qurish va yasashga oid o'yinlar.

Didaktik o'yin yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi, shuningdek, avvalgi olingen bilimlarni birlashtiradi, atrofdagi voqelik hodisalarini aks ettiradi, didaktik o'yin va tabiiy materialni yaratish bolalar o'yining eng yaxshi variantidir. Shu maqsadda, "O'rmonni sayohat" o'yini o'rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun dolzarbdir. U orqali ular birinchi marta yangi turdag'i daraxtlar bilan tanishadilar, ularda qanday mevalar o'sishini aniqlaydilar, bargli va ignabargli daraxtlarning xususiyatlarini o'rganadilar, o'rmonning yil davomida qanday o'zgarishini o'rganadilar va hokazo.. O'rganadilar, takrorlaydilarnva tabiatdagi xulq-atvor qoidalarini mustahkamlaydilar. Ular o'rmon boyligining go'zalligi haqida gapirishni, savol berishni, jamoada, guruhda o'ynash ko'nikmalarini mustahkamlashni o'rganadilar. Quyida keltirilgan didaktik o'yinda ota-onalar va bolalar birgalikda o'ynashsa bo'ladi. Bolalar, ota-onalari bilan birga, vaqtiga vaqtiga bilan qishloqqa chiqib ketishadi, shuning uchun ular atrofidagi dunyo va o'rmonda o'zini tutish qobiliyati haqidagi bilimlar bolalar uchun yetarli emas va hatto juda yuzaki. Shuning uchun "O'rmonni o'rganing" tabiiy material bilan didaktik o'yinni o'tkazish bolalarga ham, ota-onalarga ham yangi bilim, ko'nikmalarni egallashda, dunyoqarashini kengaytirishda va hokazolarda yordam beradi.

Didaktik o‘yinlarni xilma-xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo‘g‘irchoqlar, o‘yinchoqlar, rasmlar va tarqatma materiallar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o‘yinlar maqsadiga ko‘ra 4 omilni o‘z ichiga oladi:

1. O‘yinning vazifasi.
2. O‘yinning harakati.
3. O‘yinning qoidasi.
4. O‘yinning yakuni.

Har bir didaktik o‘yinni boshlashdan oldin bolalarga o‘yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini tarbiyachii tomonidan tushuntirib o‘tiladi. Bolalar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarini mustahkamlash, ijodiy tafakkurini shakllantirish, tasavvurini kengaytirishga yo‘naltirilgan didaktik o‘yinlardan biri «Ular nima qilyapti?» deb nomlanadi. Bu o‘yin uy hayvonlarining harakatdagi rasmlaridir. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga harakatdagi uy hayvonni rasmini ko‘rsatadi. Ular uy hayvonining nomi va ular qilayotgan harakatini topib aytishadi. Masalan, bu sigir. U o‘t yeyapdi. Bu it. U huryapti. Bu mushuk. U yotibdi va hokazo. So‘ngra bolalar shu rasm mazmuni asosida sigir qayerda o‘t yeyayotganini , nega o‘tni yaxshi ko‘rishini va shu kabi savollar berish lozim. It kimga, nima uchun hurayotgani, ya’ni tasvirdagi holatdan oldingi va keyingi hodisalarini tasavvur qilish orqali kichik hikoyachalar tuzishga yo‘naltirilishi kerak. Kichik hikoyachalarda suratdagi hayvonlarning bir-biri bilan suhabatini ham tashkil etish maqsadga muvofiq. Suhbatlarning mazmunini bolalarning o‘zлari belgilashadi. Bu didaktik o‘yinning maqsadi ularda tafakkur mustaqilligi, ijodkorlik va yaratuvchanlik hissi shakllana boradi. O‘yin qatnashchilarini rag‘batlantirish, maqtash, yaxshi ishtirok etganlari uchun ularga yetakchi rolni berish, ba’zan esa o‘yinlarda foydalanilgan o‘yinchoqni o‘ynashga berish yoki mevalarni yeyishga berish mumkin, ammo bolalar bunday mukofotlarni olaman deb har qanday yo‘l bilan bu ishga intilishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

“Didaktik o‘yin jarayonida turli-tuman aqliy jarayonlar faollashadi va ixtiyoriy bilim oladi. O‘yin g‘oyasini tushunish va unga amal qilish, o‘yin harakatlari va o‘yin qoidalarini o‘zlashtirish uchun tarbiyachining gaplarini yaxshilab tinglash va tushunib olish zarur. O‘yindagi vazifalar diqqatni bir joyga to‘plashni, narsalarni farq qilish, taqqoslash, umumlashtirish jarayonlarning faolligini talab qiladi. Tajribali tarbiyachi bu o‘yindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har

xil rejalar, vazifalarni qo‘rmasdan bajarishlari uchun foydalanadi.”² Didaktik o‘yinni amalga oshirishda har doim g‘oyaviylik prinsipiiga asoslanish kerak. Didaktik o‘yin tarbiyachining vazifa hamda maqsadlariga muvofiq kelishi lozim. Didaktik o‘yinlar bolalarning birgalikda o‘ynab, o‘z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg‘unlashtira olishi, bir-biriga ko‘maklashish va o‘rtog‘ining muvaffaqiyatidan xursand bo‘lishi kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. O‘yinlar bolalarning sofkillik, rostgo‘ylik kabi ijobiy xislatlari shakllanishiga imkon beradi. Didaktik o‘yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg‘ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi. Bunday o‘yinlarga kichik bolalar uchun «Rangiga qarab top», «Shakliga qarab top» kabi o‘yinlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Katta guruh bolalari uchun «Ishchilar nimalar va qanday ishlarni bilishadi?», «Dehqonlar nimalarni yetishtiradi?», «Kim ko‘proq narsalarning nomini ayta oladi?» va boshqa o‘yinlarni ko‘rsatish mumkin. Didaktik o‘yinlar bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o‘z shaxsiy tajribalari va mashg‘ulotlarda olgan bilimlarni amalda qo‘llay olishga o‘rganadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarni, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarni tartibga soladi. Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali o‘yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o‘zlashtiradilar. Didaktik o‘yin kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojiantirish maqsadida yaratiladi. Unda o‘yin elementlari qaricha ko‘p bo‘lsa, bolalarga u shuncha quvonch bag‘ishlaydi. Didaktik o‘yining muhim tomoni - uni o‘tkazishdan ko‘zda tutiladigan g‘oyadir. O‘yin g‘oyasi bolalarda o‘yinga qiziqish uyg‘otadi, ko‘pincha bu g‘oya didaktik o‘yinni boshlashga sababchi bo‘ladi. Masalan, «Xaltachada nima bor?», yoki «Kim qanday qichqiradi» va shunga o‘xshashlar. Har bir didaktik o‘yinda o‘yin mazmuni, g‘oyasidan kelib chiqqan qoidalar bo‘ladi. Unda qoidaning mavjudligi harakat o‘ynalishini yoki o‘yining borishini belgilab beradi, bolalarning xulqini,

²“Maktabgacha pedagogika “F.R Qodirova. Sh.Q Toshpo‘latova. N.M.Kayumova. MN.A‘zamova Toshkent-2019.

o‘zaro bir-biriga bo‘lgan munosabatini boshqarib, kerak tomonga o‘ylantirib turadi. Qoida bolalar harakatini baholovchi o‘lchovdir.

Didaktik o‘yinda amal qilinadigan qoidalar o‘yin harakatlarining to‘g‘ri-noto‘g‘rilibini aniqlovchi va ularga baho beruvchi mezon hisoblanadi. Bolalarning biror bolaga nisbatan "U o‘yin qoidasini buzib o‘ynayapti" deyishlarining o‘zi ularning o‘yin qoidalariga qandaydir o‘zgartirib bo‘lmaydigan qonundek munosabatda bo‘lishlarini ko‘rsatadi. Bolalarning o‘yin qoidalarini o‘rganib olishlari va ularga rioya qilishlari, ularda mustaqillikni, o‘yin jarayonida o‘zini-o‘zi, o‘zaro bir-birini nazorat qila bilish qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi. O‘yining natijasini ikki nuqtayi nazaridan: bolalar va tarbiyachi nuqtayi nazaridan baholash lozim. Agar o‘yin natijasini bolalar nuqtayi nazaridan baholaganda, unda bu o‘yindan bolalar qanday ma’naviy va axloqiy ozuqa olganlarini hisobga olish lozim.

Didaktik vazifalarni bajarish bolalardan ma’lum darajada zo‘r berishni, ya’ni ularning aqliy faoliyatiga talabni kuchaytiradi. Bolalar fahm-farosatlari, topag‘onliklari, diqqat va xotiralarini namoyish qiladilar. Bularning hammasi bolalarning o‘z kuchiga ishonchini oshiradi. Qalbini xursandchilik hissi bilan to‘ldiradi, ular bundan ma’naviy qoniqish hosil qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ta’lim to‘g‘risida “ O‘RQ-637-son 23.09.2020
2. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595 sonli 22.12.2020
3. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y.
4. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.
5. F.R Qodirova, Sh.Q Toshpo‘latova, N.M.Kayumova va MN.A’zamova .”Maktabgacha pedagogika “.Toshkent-2019
6. Xasanboyeva O.U. va boshq. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. T.: Ilm ziyo, 2006.

Veb-saytlar:

- 1.<https://fayllar.org/mundarija-kirish-v5.html?page=2>
- 2.<https://goaravetisyany.ru/uz/netradicionnye-formy-provedeniya-zanyatiy-v-detskom-sadu-netradicionnye>
- 3.<https://lex.uz/docs/-4646908>